**Z.D. Sanjarov**

The role and main types of agricultural tourism in Uzbekistan ........ 724
**M.Xolmuratova, G.N.Tojiyeva**

Цифровые технологии как драйвер повышения эффективности банковского маркетинга ........ 727
**Кахрамонов Хуршиджон Шухрат угли, Маннабова Хулкар Фарход кизи**

Потребительская стоимость товаров в условиях экономики Узбекистана ........ 735
**Мусаева Шоира Азимовна**

Valyuta risklarini boshqarishda metching siyosatining ahamiyatini oshirish ........ 739
**Yaxyayev Ziyodilla Lutfullayevich**

Yangi o‘zbekiston iqtisodiyotida xususiy tadbirkorlikning roli va ahamiyati ........ 744
**Azimova Shoxista Salohiddinovna**




# YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING ROLI VA AHAMIYATI

**Azimova Shoxista Salohiddinovna**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o’qituvchisi
Orcid: 0009-0008-5803-0671

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston iqtisodiyotida xususiy tadbirkorlikning roli tahlil qilinadi. Tadqiqotda xususiy tadbirkorlikning bandlikni ta’minlash, iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish, investitsiyalarni jalb qilish va eksport salohiyatini kengaytirishdagi ahamiyati asosiy e’tiborda bo‘lgan. Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar, qonunchilikdagi o‘zgarishlar va tadbirkorlik muhitini qo‘llab-quvvatlash choralari tahlil qilinib, ularning iqtisodiy samaradorligi baholangan. Natijalarga ko‘ra, xususiy sektorning rivoji mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligida muhim omil hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: xususiy tadbirkorlik, iqtisodiy o‘sish, bandlik, investitsiyalar, innovatsiyalar, iqtisodiy siyosat, kichik biznes, O‘zbekiston iqtisodiyoti.

Abstract: This article examines the role of private entrepreneurship in the economy of Uzbekistan. The study focuses on its impact on employment creation, stimulation of economic growth, attraction of investments, and expansion of export capacity. It analyzes government reforms, legislative changes, and support measures for entrepreneurial activities, evaluating their economic effectiveness. The findings indicate that the development of the private sector is a key factor in ensuring the socio-economic stability of the country.

Key words: private entrepreneurship, economic growth, employment, investment, innovation, economic policy, small business, Uzbekistan economy.

Аннотация: В статье рассматривается роль частного предпринимательства в экономике Узбекистана. Основное внимание уделено его влиянию на обеспечение занятости, стимулирование экономического роста, привлечение инвестиций и расширение экспортного потенциала. Проанализированы государственные реформы, изменения в законодательстве и меры поддержки предпринимательской деятельности, а также дана оценка их экономической эффективности. Результаты показывают, что развитие частного сектора играет ключевую роль в обеспечении социально-экономической устойчивости страны.

Ключевые слова: частное предпринимательство, экономический рост, занятость, инвестиции, инновации, экономическая политика, малый бизнес, экономика Узбекистана.

## KIRISH

O‘zbekiston iqtisodiyotida xususiy tadbirkorlikning roli va ahamiyati tobora ortib bormoqda. Mamlakatning iqtisodiy siyosatida xususiy sektor davlatning asosiy rivojlanish strategiyalaridan biri sifatida qaralmoqda. Xususiy tadbirkorlik iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, yangi ish o‘rinlarini yaratish, aholining turmush darajasini yaxshilash, innovatsion yondashuvlarni joriy qilish hamda tashqi savdoni rivojlantirishda muhim o‘rin egallaydi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi tomonidan iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotni jadallashtirish, faol ishbilarmonlik muhitini shakllantirish, bunyodkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash va aholi uchun munosib hayot sharoitlarini yaratishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakat iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini sifatida izchil rivojlanmoqda. Bugungi kunda ushbu

sohani yanada kengaytirish, tadbirkorlik subyektlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish borasida tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Masalan, 2024–yil 1–may holatiga ko‘ra, Toshkent shahrida faoliyat yuritayotgan tashkilot va korxonalar soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) 99 926 tani tashkil etgan bo‘lib, ulardan 87 727 tasi kichik korxonalar va mayda firmalar hisoblanadi [1].

Xususiy tadbirkorlikning O‘zbekiston iqtisodiyotidagi strategik o‘rni quyidagi asosiy yo‘nalishlarda yaqqol namoyon bo‘ladi:

1. Bandlikni ta’minlash – Xususiy tadbirkorlik aholi bandligini oshirishda asosiy omil bo‘lib, ayniqsa, kichik va o‘rta biznes sektori ko‘plab yangi ish o‘rinlarini yaratishga xizmat qilmoqda. 2023–yilda band bo‘lganlarning 78 foizdan ortig‘i aynan ushbu sektorda mehnat qilgani kuzatilgan.

2. Iqtisodiy diversifikatsiyani ta’minlash – Xususiy sektor mamlakat iqtisodiyotining qishloq xo‘jaligidan sanoat va xizmatlar sohasiga o‘tishida muhim vosita bo‘lmoqda. Tadbirkorlik subyektlari zamonaviy texnologiyalarni joriy qilgan holda eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirayotganlari kuzatilmoqda.

3. Investitsiyalarni jalb qilish – Xususiy sektor rivoji ichki va tashqi investitsiyalar uchun qulay muhit yaratib, xorijiy sarmoyadorlar ishtirokini kengaytirmoqda. Jumladan, erkin iqtisodiy zonalarda tadbirkorlar uchun maxsus soliq va bojxona imtiyozlari taqdim etilmoqda.

4. Innovatsiyalarni joriy etish – Startaplar va texnologik kompaniyalar faoliyati orqali yangi g‘oya va texnologiyalarni ishlab chiqish, raqamli yechimlarni iqtisodiyotga tatbiq etish jarayonlari tezlashmoqda.

5. Eksport salohiyatini kengaytirish – Kichik biznes subyektlari tomonidan tayyorlanayotgan tekstil, charm buyumlari, qayta ishlangan oziq-ovqat mahsulotlari kabi noan’anaviy eksport tovarlari xorijiy bozorlarda o‘z o‘rnini topmoqda.

Mazkur omillar O‘zbekistonda xususiy tadbirkorlik faoliyatining nafaqat iqtisodiy o‘sishga, balki ijtimoiy barqarorlik va aholi farovonligiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatayotganini tasdiqlaydi. Shu boisdan, tadbirkorlik muhitini takomillashtirish hamda xususiy sektorga qaratilgan davlat siyosatini chuqur tahlil qilish bugungi kunda dolzarb ilmiy-ijtimoiy vazifalardan biri hisoblanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O‘zbekiston Respublikasida xususiy tadbirkorlikni o‘rganish bo‘yicha bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan bo‘lib, bu borada bir qator olimlar tomonidan muhim nazariy-amaliy asoslar ishlab chiqilgan. Jumladan, Q.Q. Mambetjanov, X.T. Qodirov, M.S. Qosimova, R.A. Sodiqova, Sh. Yuldashev, S. G‘ulomov, N.Q. Muradova va boshqa tadqiqotchilar tomonidan respublikada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan muhim ilmiy tadqiqotlar o‘tkazilgan [2].

Xususan, B. Xodiyevning “Tadbirkorlik iqtisodiyoti” (2018) nomli asarida tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiyotdagi o‘rni, rivojlanish omillari va uning ijtimoiy-iqtisodiy ta’siri har tomonlama tahlil etilgan. Shuningdek, Jo‘raev Q. va Ahmedov M. tomonidan tayyorlangan “Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik” (2020) nomli asarda bozor munosabatlari sharoitida tadbirkorlikning funksiyalari, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari, tartibga solish choralari yoritilgan bo‘lib, O‘zbekistonda kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishda davlat siyosatining o‘rni bo‘yicha qimmatli nazariy va amaliy mulohazalarni beradi.

S. G‘ulomovning “Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish asoslari” (2019) asarida kichik biznesning iqtisodiyotdagi tutgan o‘rni, rivojlanish bosqichlari va strategiyalari, moliyalashtirish mexanizmlari va zamonaviy yondashuvlar muhim o‘rin egallaydi. Ushbu asar kichik biznesni rivojlantirish bo‘yicha chuqur tahliliy mulohazalarni o‘z ichiga olgan.

Shuningdek, A. Allayarovning “O‘zbekistonda tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari” (2021) nomli asarida xususiy tadbirkorlik sohasida oxirgi yillarda kuzatilayotgan o‘sish sur’atlari, tendensiyalar va mavjud tizimli muammolar statistik tahlil asosida ko‘rsatib berilgan. Mazkur manbada keltirilgan raqamli ma’lumotlar, real holatlar va amaliy misollar ushbu maqolaning nazariy asosini mustahkamlash hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi o‘rnini aniqlash uchun rasmiy statistika ma’lumotlari, hukumat qarorlari va ochiq manbalar tahlil qilindi. Olingan ma’lumotlar statistik va taqqoslov tahlil usullari orqali umumlashtirilib, xususiy sektorning iqtisodiy ko‘rsatkichlardagi ulushi va dinamikasi baholandi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Xususiy tadbirkorlikning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati quyidagi yo‘nalishlarda yaqqol namoyon bo‘lmoqda:

Hududlarni rivojlantirish – Xususiy tadbirkorlik qishloq va tumanlarda kichik biznes subyektlarining

shakllanishi orqali hududiy iqtisodiy faollikni oshirishga xizmat qilmoqda. Aholi bandligining mahalliy darajada ta’minlanishi natijasida ijtimoiy tenglikka erishish imkoniyati kengaymoqda. Ayniqsa, qishloq joylarda ochilgan kichik korxonalar mahalliy aholining doimiy daromad manbaiga ega bo‘lishini ta’minlab, ichki migratsiya darajasini sezilarli darajada kamaytirishga xizmat qilmoqda.

O‘rta sinfni shakllantirish – Mamlakatda tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi natijasida moliyaviy jihatdan barqaror, o‘z daromad manbaiga ega bo‘lgan o‘rta ijtimoiy qatlam shakllanmoqda. Bu esa ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash, fuqarolarning iqtisodiy hayotdagi ishtirokini kuchaytirish va demokratik jarayonlarda faol bo‘lishiga asos yaratmoqda. O‘rta sinfning kengayishi nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy va ijtimoiy barqarorlikning ham muhim kafolati sifatida e’tirof etilmoqda(1-rasm).




1-rasm. Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami bandlikdagi ulushi.

Davlat byudjetiga soliq tushumlarini oshirish – Xususiy sektor davlat byudjetining shakllanishida muhim manba hisoblanadi. Soliq to‘lovchilar tarkibida kichik biznes subyektlarining ulushi tobora ortib bormoqda. Ularning faoliyati natijasida byudjetga tushumlar ko‘payib, moliyaviy barqarorlik ta’minlanmoqda. Bu esa davlat xarajatlarini ijtimoiy sohaga yo‘naltirish imkonini kengaytiradi.

Tadbirkorlik madaniyatini rivojlantirish – Aholi orasida tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish, xususan, yoshlar va ayollarni iqtisodiy faoliyatga jalb etish borasida davlat tomonidan bir qator dasturlar amalga oshirilmoqda. Tadbirkorlikni boshlash uchun o‘quv kurslari, kredit resurslariga imtiyozli kirish imkoniyatlari va maslahat xizmatlari taqdim etilishi natijasida jamiyatda tadbirkorlik madaniyati shakllanib bormoqda.

Qonunchilik islohotlari va institutsional qo‘llab-quvvatlash – Bugungi kunda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda huquqiy asoslarning mustahkamlanishi muhim rol o‘ynamoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonuni tadbirkorlarning huquqiy maqomini kuchaytirib, ularning manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan. Shuningdek, Soliq kodeksiga kiritilgan soddalashtirishlar natijasida moliyaviy yuk kamaydi, bu esa tadbirkorlarning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda(1-jadval).

1-jadval. Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami YaIMdagi ulushi.

| Klassifikator | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 | 2024Q1 | 2024Q2 | 2024Q3 |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| O'zbekiston Respublikasi | 57,5 | 56,9 | 54,6 | 54,5 | 42,7 | 47,5 | 53,8 |
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 62,3 | 61,4 | 61,8 | 64,7 | 49,0 | 52,7 | 64,0 |
| Andijon viloyati | 72,7 | 74,6 | 69,6 | 68,9 | 56,4 | 64,0 | 69,4 |
| Buxoro viloyati | 76,6 | 77,1 | 74,1 | 73,5 | 62,2 | 69,5 | 74,2 |
| Jizzax viloyati | 84,1 | 81,0 | 78,7 | 75,6 | 65,6 | 68,3 | 74,1 |
| Qashqadaryo viloyati | 74,1 | 71,8 | 70,0 | 70,9 | 57,6 | 64,6 | 70,9 |
| Navoiy viloyati | 27,8 | 29,2 | 27,9 | 28,3 | 18,6 | 21,5 | 25,1 |
| Namangan viloyati | 76,3 | 76,2 | 74,7 | 75,3 | 64,4 | 68,0 | 74,3 |
| Samarqand viloyati | 75,0 | 74,3 | 70,8 | 72,8 | 68,2 | 69,8 | 73,5 |
| Surxondaryo viloyati | 78,0 | 78,4 | 77,9 | 78,0 | 69,5 | 75,2 | 78,7 |
| Sirdaryo viloyati | 73,0 | 71,2 | 67,8 | 66,3 | 52,3 | 60,7 | 67,2 |
| Toshkent viloyati | 52,0 | 48,2 | 49,4 | 52,0 | 45,2 | 47,4 | 52,0 |
| Farg'ona viloyati | 73,3 | 72,4 | 71,6 | 72,5 | 64,0 | 68,0 | 72,9 |
| Xorazm viloyati | 77,4 | 75,8 | 71,9 | 72,4 | 63,0 | 66,6 | 72,0 |
| Toshkent shahri | 53,6 | 51,1 | 51,2 | 51,9 | 49,7 | 48,4 | 50,7 |

O'zbekistonda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish bo'yicha so'nggi yillarda keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, erkin iqtisodiy zonalar va maxsus sanoat zonalarida tadbirkorlikni rivojlantirish uchun zarur infratuzilma – elektr energiyasi, transport va aloqa tarmoqlari kengaytirilmoqda. Bu esa ishlab chiqarish samaradorligi va logistika qulayligini oshirish orqali biznes yuritish uchun muhim shart-sharoit yaratmoqda.

Shu bilan birga, tadbirkorlikni raqamlashtirish bo'yicha sezilarli qadamlar tashlanmoqda. "Soliq xizmati onlayn" va "Yagona oyna" kabi elektron tizimlarning joriy etilishi natijasida tadbirkorlar uchun soliq hisoboti, litsenziya olish, ruxsatnoma va boshqa jarayonlar soddalashtirildi. Elektron tijorat platformalari orqali kichik biznes vakillari yangi bozor segmentlariga chiqish imkoniga ega bo'lmoqda.

Tadbirkorlarning huquqiy himoyasini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi faoliyat yuritmoqda. Ushbu agentlik xususiy sektor vakillarining manfaatlarini himoya qilish, ularni moliyaviy va axborot resurslari bilan ta'minlash, to'siqlarni bartaraf etish yo'nalishida faoliyat olib bormoqda.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2022–yilning yanvar–mart oylarida kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlarining yalpi ichki mahsulotdagi (YAIM) ulushi 44,7 foizni tashkil etgan. Hududlar kesimida esa eng yuqori ulush Jizzax viloyatida qayd etilib, 72,5 foizga teng bo'lgan. 2023–yilda kichik biznesning YAIMdagi ulushi 55 foizdan ortiqni tashkil etgan bo'lib, bu sektorning iqtisodiy tizimdagi o'rni tobora mustahkamlanib borayotganini ko'rsatadi. Eksportda ham xususiy sektorning ulushi ortib, umumiy eksport hajmining 25 foizidan ko'prog'i aynan xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida tadbirkorlik subyektlari uchun yaratilayotgan qulay muhit ularning investitsion faolligi va ishbilarmonlik kayfiyatini mustahkamlab bormoqda. 2024–yil 1–may holatiga ko'ra, respublika bo'yicha faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar soni 99 926 tani tashkil etgan bo'lib, ularning sohalar kesimidagi taqsimoti quyidagicha: savdo – 32 189 ta, sanoat – 11 320 ta, qurilish – 7 248 ta.

Shu bilan birga, 2024–yilning yanvar–aprel oylarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 5 472 tani tashkil qilgan. Umuman olganda, 2024–yil 1–may holatiga faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 89 818 taga yetgan bo'lib, ularning asosiy qismi savdo (35,8 %), sanoat (12,5 %), qurilish (8,0 %) va yashash hamda ovqatlanish xizmatlari (6,4 %) sohalarida to'plangan.

Tadbirkorlik sektori mamlakatdagi aholi bandligining 78 foizini ta'minlaydi. Bu esa xususiy sektorning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashdagi o'rnini ham ko'rsatadi. O'zbekiston iqtisodiy rivojlanishini yanada erkinlashtirish va raqobatbardosh qilishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tutgan o'rni beqiyosdir. Bunga quyidagi omillar asos bo'lmoqda:

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotning barqaror negizini tashkil etadi;
- mamlakat farovonligi ko'p jihatdan tadbirkorlik faoliyatining talabga mos, sifatli va tezkor mahsulot yetkazib berishiga bog'liq;

- ushbu soha bozor iqtisodiyotini rivojlantiruvchi lokomotiv vazifasini bajarmoqda;

O‘zbekistonda kichik biznesni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning maqsadga muvofiqligi, eng maqbul shakllarini aniqlash ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Yuqoridagi tahlillar asosida xulosa qilish mumkinki, xususiy sektor iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchiga aylanib, mamlakatda barqaror rivojlanishning muhim poydevorini yaratmoqda.

2-jadval. Kichik tadbirkorlik subyektlarida band bo’lganlar soni.

| Klassifikator | 2017 | 2018 | 2019 | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| O‘zbekiston Respublikasi | 10541,5 | 10128,8 | 10318,9 | 9865,7 | 10080,6 | 10131,1 | 10373,3 |
| Qoraqalpog‘iston Respublikasi | 486,0 | 532,8 | 532,9 | 524,8 | 521,6 | 528,9 | 547,6 |
| Andijon viloyati | 1110,4 | 1035,3 | 1054,6 | 989,9 | 1020,0 | 1040,0 | 1071,9 |
| Buxoro viloyati | 648,7 | 619,8 | 606,9 | 590,5 | 576,8 | 579,6 | 598,4 |
| Jizzax viloyati | 378,7 | 384,5 | 427,2 | 418,7 | 434,1 | 422,6 | 427,1 |
| Qashqadaryo viloyati | 973,9 | 965,8 | 958,1 | 914,1 | 943,7 | 943,8 | 952,4 |
| Navoiy viloyati | 250,6 | 229,3 | 227,0 | 207,4 | 214,5 | 209,7 | 222,2 |
| Namangan viloyati | 863,9 | 872,3 | 914,7 | 888,4 | 907,7 | 891,9 | 913,8 |
| Samarqand viloyati | 1286,9 | 1216,1 | 1205,5 | 1158,3 | 1174,7 | 1197,8 | 1219,5 |
| Surxondaryo viloyati | 802,6 | 781,0 | 814,9 | 770,3 | 785,5 | 773,6 | 776,1 |
| Sirdaryo viloyati | 278,4 | 274,2 | 267,4 | 247,5 | 248,7 | 244,1 | 243,0 |
| Toshkent viloyati | 968,5 | 898,8 | 897,8 | 833,4 | 853,3 | 843,3 | 872,0 |
| Farg‘ona viloyati | 1229,3 | 1144,5 | 1185,0 | 1136,3 | 1164,7 | 1190,4 | 1230,1 |
| Xorazm viloyati | 599,2 | 573,4 | 591,9 | 567,9 | 574,3 | 579,3 | 609,8 |
| Toshkent shahri | 664,4 | 601,0 | 635,0 | 618,2 | 661,0 | 686,1 | 689,4 |

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekiston iqtisodiyotida xususiy tadbirkorlikning tutgan o‘rni tobora ortib bormoqda. Amalga oshirilayotgan islohotlar, huquqiy bazaning mustahkamlanishi, elektron xizmatlarning joriy etilishi va qulay infratuzilmaning shakllanishi xususiy sektor faoliyatining jadallashuviga xizmat qilmoqda. Mazkur yo‘nalishdagi davlat siyosati va uning ustuvor maqsadlari quyidagilardan iborat:

- kichik biznesni rivojlantirish uchun qulay iqtisodiy, moliyaviy va institutsional sharoitlar yaratish;
- raqobat muhitini shakllantirish hamda kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshlik darajasini oshirish;
- kichik biznesning investitsion va innovatsion faoliyatini rag‘batlantirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni qo‘llab-quvvatlash;
- kichik tadbirkorlik subyektlariga o‘z mahsulotlari va intellektual faoliyat natijalarini ichki va tashqi bozorlarda ilgari surishda ko‘maklashish;
- davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlarining samaradorligini oshirish, bunda tadbirkorlik subyektlarining ishtirokini kengaytirish hamda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish;
- rivojlantirishning milliy, hududiy va mahalliy dasturlariga kichik tadbirkorlik subyektlarini teng huquqli ishtirokchi sifatida jalb qilish va ular uchun teng imkoniyatlar yaratish;
- dasturlarni amalga oshirish uchun ajratilgan byudjet mablag‘laridan oqilona va samarali foydalanishni ta’minlash, qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining ochiqligi va shaffofligini kafolatlash;
- kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash infratuzilmasi ob’ektlari (biznes-inkubatorlar, konsalting markazlari, texnoparklar) mavjudligini ta’minlash va ularning samarali faoliyat yuritishini qo‘llab-quvvatlash.

Shuningdek, kichik tadbirkorlikni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ijobiy fikrlar bilan bir qatorda, ba’zi muammolar va takomillashtirishga muhtoj jihatlar ham mavjud. Shu sababli, mavjud mexanizmlarni takomillashtirish, subyektiv to‘siqlarni bartaraf etish, soliq va kredit tizimini yanada soddalashtirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, xususiy tadbirkorlik O‘zbekiston iqtisodiyotining harakatlantiruvchi kuchi sifatida shakllanmoqda. Davlat tomonidan ko‘rilayotgan tizimli choralar, islohotlar va mexanizmlarning bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgani ushbu sektorning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikdagi rolini kuchaytirmoqda. Kelgusida tadbirkorlik faoliyatining yanada kengayishi mamlakatning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini oshirish, bandlik darajasini barqaror saqlash hamda aholining turmush farovonligini ta’minlashga xizmat qilishi shubhasiz.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Q. Mambetjanov, A. Sarmanov. O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sektorining rivojlanish tendensiyalari // Iqtisodiyotning real sektori / Реальный сектор экономики. Iqtisod va moliya / Экономика и финансы, 2023. 9 (169).

2. X. T. Qodirov. Tikuv-trikotaj korxonalari eksport salohiyatini xalqaro marketing strategiyalari asosida oshirish. – T.: 2020.
3. M. S. Qosimova. Kichik biznes va tadbirkorlik. – T.: TDIU, 2012; R. A. Sodiqova. O‘zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish sharoitida kichik biznesda raqobat muhitini shakllantirish. I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya. – T.: O‘zRFA Iqtisodiyot instituti, 2008.
4. Sh. Yuldashev. Maliy biznes i predprinimatelstvo. – T.: Iqtisod-moliya, 2006.
5. N. Q. Muradova. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning nazariy asoslarini takomillashtirish. Iqt. fan. doktori dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: 2016.
6. I. A. Karimov. O‘zbekistonning o‘z taraqqiyot yo‘li. – Toshkent: O‘zbekiston, 1993.
7. B. Xodiev. Tadbirkorlik iqtisodiyoti. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2018.
8. Q. Jo‘raev, M. Ahmedov. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
9. S. G‘ulomov. Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish asoslari. – Toshkent: Moliya, 2019.
10. A. Allayarov. O‘zbekistonda tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari. – Toshkent: Innovatsiya, 2021.
11. Ch. A. Kulmatov. Theoretical foundations of small business and private entrepreneurship development // 3rd Global Congress on Contemporary Science and Advancements. Hosted from New York, USA. – P. 189.
12. Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot (ishlar, xizmatlar) eksporti hajmi. – https://www.stat.uz/uz/rasmiy-statistika/small-business-and-entrepreneurship-2
13. Toshkent shahar statistika bosh boshqarmasi ma’lumoti. – https://toshstat.uz/uz/matbuot-markazi/news/10994-toshkent-shahrida-faoliyat-ko-rsatayotgan-korxona-va-tashkilotlarning-soni-qanchaga-yetdi

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov
**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV
**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o‘g‘li

**2025. № 4**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz